



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2024-yil 1-avgust holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 20 947 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 18 560 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 93,9 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 92,8 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024-yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 1 957 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 77,1 foizni tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 308 ta, xususiy korxonalar soni 320 ta va oilaviy korxonalar soni 268 tani tashkil etadi.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	466	9,7 %	Zarafshon sh.	125	9,2 %
Karmana t.	254	8,1 %	Nurota t.	101	7,1 %
Qiziltepa t.	230	8,1 %	Tomdi t.	75	12,9 %
Navbahor t.	212	10,2 %	Uchquduq t.	75	9,2 %
Xatirchi t.	182	7,5 %	G‘ozg‘on sh.	56	12,4 %
Konimex t.	181	17,5 %			

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2024-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 20 947 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,1 foiz, sanoat – 13,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 10,6 foiz, qurilish – 5,7 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,9 foiz, tashish va saqlash – 3,4 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,6 foiz, boshqa turlari – 20,1 foiz.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 829	Zarafshon sh.	1 354
Karmana t.	3 132	Konimex t.	1 034
Qiziltepa t.	2 829	Uchquduq t.	818
Xatirchi t.	2 429	Tomdi t.	582
Navbahor t.	2 072	G'ozg'on sh.	451
Nurota t.	1 417		

2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda.

2024-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 896 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 891 ta;
- yirik korxonalar 5 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	438	10,4 %	Zarafshon sh.	121	9,9 %
Karmana t.	250	8,7 %	Nurota t.	98	8,0 %
Qiziltepa t.	224	8,7 %	Tomdi t.	73	14,7 %
Navbahor t.	210	11,1 %	Uchquduq t.	72	10,3 %
Xatirchi t.	179	8,4 %	G'ozg'on sh.	53	12,8 %
Konimex t.	178	19,8 %			

2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-avgust holatiga 18 650 taga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92,8 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 42,8 foiz, sanoat – 14,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,7 foiz, qurilish – 6,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 3,8 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,5 foiz, boshqa turlari – 10,7 foiz.

Hududlar kesimida


Navoiy sh. **4 205**Karmana t. **2 868**Qiziltepa t. **2 587**Xatirchi t. **2 136**Navbahor t. **1 893**Zarafshon sh. **1 222**Nurota t. **1 229**Konimex t. **901**Uchquduq t. **696**Tomdi t. **498**G'ozg'on sh. **415**

2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,0 foiz, sanoat – 19,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 16,8 foiz, qurilish – 3,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,7 foiz, tashish va saqlash – 2,9 foiz, axborot va aloqa – 3,8 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,3 foiz.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	434	10,4 %
Karmana t.	250	8,8 %
Xatirchi t.	178	8,4 %
Navbahor t.	210	11,1 %
Qiziltepa t.	224	8,7 %
Konimex t.	178	20,0 %


Zarafshon sh.	121	10,0 %
Nurota t.	98	8,0 %
Tomdi t.	73	14,7 %
Uchquduq t.	72	10,4 %
G'ozg'on sh.	53	12,8 %

2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Navoiy shahrida (22,5 foiz), Karmana (15,4 foiz), Qiziltepa (13,9 foiz), Xatirchi (11,5 foiz) va Navbahor (10,2 foiz), Zarafshon shahri (6,5 foiz), Nurota (6,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	4 169	Zarafshon sh.	1 215
Karmana t.	2 857	Konimex t.	892
Qiziltepa t.	2 583	Uchquduq t.	693
Xatirchi t.	2 130	Tomdi t.	495
Navbahor t.	1 889	G'ozg'on sh.	413
Nurota t.	1 224		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2024- yil 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	180
Zarafshon sh.	23
G‘ozg‘on sh.	14
Konimex t.	350
Qiziltepa t.	242
Navbahor t.	293
Karmana t.	299
Nurota t.	338
Tomdi t.	187
Uchquduq t.	42
Xatirchi t.	242



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	622
Zarafshon sh.	211
G'ozg'on sh.	236
Konimex t.	77
Qiziltepa t.	285
Navbahor t.	213
Karmana t.	453
Nurota t.	206
Tomdi t.	69
Uchquduq t.	118
Xatirchi t.	285



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 13,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan - 89,2 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,9 foizni tashkil etdi), 7,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92,8 foizni tashkil etdi), 2,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 140,4 foizni tashkil etdi) va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,6 foizni tashkil etdi) tashkil etgan.



2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	365
Zarafshon sh.	86
G'ozg'on sh.	15
Konimex t.	29
Qiziltepa t.	186
Navbahor t.	108
Karmana t.	216
Nurota t.	79
Tomdi t.	27
Uchquduq t.	26
Xatirchi t.	67



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 49,7 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 77,4 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,2 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,6 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 34,1 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,6 foizni tashkil etdi.

195


Fuqarolik
obyektlarini qurish

410

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

599


Bino va
inshootlar qurish



2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	1 765
Zarafshon sh.	457
G'ozg'on sh.	104
Konimex t.	209
Qiziltepa t.	1 367
Navbahor t.	1 005
Karmana t.	1 183
Nurota t.	340
Tomdi t.	161
Uchquduq t.	303
Xatirchi t.	1 089



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 7 971 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 71,8 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,9 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 19,3 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,3 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,9 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,5 foizni tashkil etdi.

712

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 540

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 731

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	270
Zarafshon sh.	186
G'ozg'on sh.	6
Konimex t.	51
Qiziltepa t.	154
Navbahor t.	57
Karmana t.	195
Nurota t.	57
Tomdi t.	15
Uchquduq t.	91
Xatirchi t.	153



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,2 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'hlari, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 9,8 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 90,2 foiz ulushini tashkil etdi.

121

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 114


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	92
Zarafshon sh.	20
G'ozg'on sh.	8
Konimex t.	9
Qiziltepa t.	36
Navbahor t.	22
Karmana t.	53
Nurota t.	10
Tomdi t.	2
Uchquduq t.	15
Xatirchi t.	31



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 15,8 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,3 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 37,9 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,3 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 46,3 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,3 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	143
Zarafshon sh.	40
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	6
Qiziltepa t.	24
Navbahor t.	20
Karmana t.	37
Nurota t.	9
Tomdi t.	8
Uchquduq t.	13
Xatirchi t.	38



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 280 ta yoki 82,1 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

92,1 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,5 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,4 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,2 foizni tashkil etdi;

15

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

12




314

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	201
Zarafshon sh.	36
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	4
Qiziltepa t.	146
Navbahor t.	51
Karmana t.	180
Nurota t.	10
Tomdi t.	8
Uchquduq t.	17
Xatirchi t.	63



2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,4 foiz ulushini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar 92,4 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishi 101,0 foizni;


pochta va kuryerlik yo'nalishi 78,6 foizni tashkil etdi.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot
2024- yil 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	347	11,8 %	Konimex t.	96	19,6 %
Karmana t.	179	10,4 %	Nurota t.	80	11,2 %
Qiziltepa t.	177	8,9 %	Uchquduq t.	67	11,1 %
Navbahor t.	131	14,0 %	Tomdi t.	36	13,6 %
Xatirchi t.	113	13,3 %	G'ozg'on sh.	6	6,5 %
Zarafshon sh.	76	13,3 %			


2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 20 947 ta korxonalar va tashkilotlarining 11 164 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi.



Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: savdo – 39,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 14,1 foiz, sanoat – 13,2 foiz va qurilish – 8,5 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	2 953	Uchquduq t.	604
Qiziltepa t.	1 981	Zarafshon sh.	570
Karmana t.	1 717	Konimex t.	489
Navbahor t.	934	Tomdi t.	265
Xatirchi t.	847	G'ozg'on sh.	92
Nurota t.	712		


2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xususiy korxon – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxon tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxon o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


Hududlar kesimida

Konimex t.	72	29,6 %	Navoiy sh.	28	4,5 %
Navbahor t.	43	9,4 %	Qiziltepa t.	13	4,2 %
G'ozg'on sh.	42	15,2 %	Karmana t.	10	2,5 %
Tomdi t.	36	18,5 %	Nurota t.	5	1,8 %
Zarafshon sh.	36	6,9 %			
Xatirchi t.	35	4,5 %			

2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 121 tani tashkil etdi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari shahar va tumanlar kesimi bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: Xatirchi (18,8 foiz), Navoiy (15,0 foiz), Zarafshon (12,7), Navbahor (11,1 foiz), Karmana (9,8 foiz), Qiziltepa (7,5 foiz), Nurota (6,6 foiz), G'ozg'on (6,7 foiz), Tomdi (4,7 foiz), Konimex (5,8 foiz), Uchquduq (1,3 foiz) shahar va tumanlar tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Xatirchi t.	773	Nurota t.	271
Navoiy sh.	617	G'ozg'on sh.	277
Zarafshon sh.	524	Konimex t.	243
Navbahor t.	456	Tomdi t.	195
Karmana t.	404	Uchquduq t.	52
Qiziltepa t.	309		

2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat





Qurilish



Savdo



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	63	10,7 %	Konimex t.	10	6,4 %
Karmana t.	61	8,3 %	Zarafshon sh.	9	7,3 %
Xatirchi t.	31	6,3 %	G'ozg'on sh.	5	11,4 %
Qiziltepa t.	34	11,7 %	Uchquduq t.	5	13,5 %
Navbahor t.	36	7,2 %			
Nurota t.	13	5,7 %			

2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-avgust holatiga 3 238 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: savdo – 50,0 foiz, sanoat – 19,3 foiz, yashash va ovqatlanishda – 11,4 foiz va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 8,2 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Karmana t.	739	Konimex t.	156
Navoiy sh.	591	Zarafshon sh.	124
Xatirchi t.	495	G'ozg'on sh.	44
Navbahor t.	498	Uchquduq t.	37
Qiziltepa t.	291	Tomdi t.	34
Nurota t.	229		

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2024- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik
xo‘jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Boshqa turlar



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


Hududlar kesimida

Navoiy sh	19	24,7%	Karmana t.	3	5,1%
Konimex t.	4	22,2%	Nurota t.	1	9,1%
Navbahor t.	1	12,5%			

2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Yetakchi o'rinni 45 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 20,4 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 16,3 foiz), Eron Islom (7,7 foiz), Turkiya (ulushi 9,0 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,3 foiz) va Qozog'iston (ulushi 5,0 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	77	Qiziltepa t.	9
Karmana t.	59	Navbahor t.	8
Konimex t.	18	Tomdi t.	6
Xatirchi t.	14	G'ozg'on sh.	5
Nurota t.	11	Uchquduq t.	3
Zarafshon sh.	11		

2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 93 tasi qo'shma korxonalar, 128 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda***xorijiy korxonalar****qo'shma korxonalar**

40	Navoiy shahri	37
7	Zarafshon shahri	4
3	G'ozg'on shahri	2
13	Konimex tumani	5
3	Qiziltepa tumani	6
5	Navbahor tumani	3
39	Karmana tumani	20
7	Nurota tumani	4
2	Tomdi tumani	4
1	Uchquduq tumani	2
8	Xatirchi tumani	6

2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Navoiy viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish boʻlimi
Tel.:79 223-62-47